

УДК:1:111:378 (575.1)

## ISLOM MANBALARIDAGI BAHS VA DALILLASH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA

**Turabova Sevara Kattaqulovna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasи dosenti,

falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), Termiz (O`zbekiston)

E-mail: [turobova.sevara@mail.ru](mailto:turobova.sevara@mail.ru)

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](#)

**Annotatsiya:** Maqolada Islom dinning muqaddas manbalaridagi bahs yuritish va dalillash usulining tinglovchilarni ma'lum bir e'tiqodlar, xatti-harakatlar va axloqiy fazilatlarning to'g'ri yoki xatoligiga ishontirishdagi o'rni zamonaviy argumentlash nazariyasi tamoyillari asosida yoritib berilgan. Shuningdek bahsga oid masalalarda imom G'azzoliyning «Ihyo ulum ad-din» asaridagi munozaraga doir bildirilgan fikrlari falsafiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bahs, dalil, isbot, nutq, argumentlash nazariyasi va amaliyoti, ishonch-e'tiqod, mantiqiy fikrlash, ritorik dalil, haqiqat.

## МЕТОДЫ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА И СПОРА В ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКАХ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ АРГУМЕНТАЦИИ

**Аннотация:** В статье на основе принципов современной теории аргументации освещается роль доказательства и спора в священных источниках ислама в убеждении слушателей в правильности или неправильности тех или иных убеждений, поступков и нравственных качеств. Кроме того в статье также анализируются с философской точки зрения взгляды Имама Газали о споре и доказательства в его трудах «Ихъя улум ад-Дин».

**Ключевые слова:** спор, аргумент, доказательство, дискурс, теория и практика аргументации, вера, убеждение, логическое мышление, риторический аргумент,стина.

## METHODS OF PROOF AND DISPUTE IN ISLAMIC SOURCES IN THE INTERPRETATION OF THE MODERN THEORY OF ARGUMENTATION

**Resume:** Based on the principles of the modern theory of argumentation, the article highlights the role of proof and argument in the sacred sources of Islam in convincing listeners of the correctness or incorrectness of certain beliefs, actions and moral qualities. In addition, the article also analyzes from a philosophical point of view the views of Imam Ghazali on the dispute and the evidence in his writings "Ihya ulum ad-Din".

**Key words:** dispute, argument, proof, discourse, theory and practice of argumentation, faith, belief, logical thinking, rhetorical argument, truth.

## KIRISH

Bahs-munozara va dalillash qarama-qarshi fikrlarni isbotlashning maxsus shakli, shuningdek, masalaning to‘g‘ri yechimini izlashning maqbul usuli sifatida insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridayoq muayyan ijtimoiy va siyosiy vaziyat ta’siri ostida yuzaga kela boshlagan hodisadir. Xususan, tanqidiylik va bahs-munozara qilish ruhiyati islom olamining ham ilk tarixiy bosqichlaridayoq markaziy o‘rinni egallab kelganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Binobarin, Qur’oni Karimda so‘zlashuv, dalillash va munozara uslubi o‘zining keng qamrovliligi, qo‘yilgan masalalarning aniqliligi bilan ajralib turadi. Insonning aqliy tafakkuri uchun keltirilgan mantiqiy dalillar bilan bir qatorda Qur’onda tinglovchilarga psixologik ta’sir ko‘rsatadigan emotsiional dalillar ham mavjud bo‘lib, unda muayyan e’tiqod va xatti-harakatlarga emotsiional munosabat bildirish yo‘li bilan tinglovchilarni belgilangan fikrni qabul qilishga ishontirilish holati kuzatiladi. Shu yo‘l bilan insonlarda aqliy qanoat va qalb osoyishtaligi hosil bo‘ladi. Bu tuyg‘ularni his etgan inson hayotda ruhiy kuch olgan va o‘z ishonch-e’tiqodi ortidan ruhiy mu’tadillikga erishgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qur’onda barcha insonlarga, ularning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va ilmiy salohiyati darajasidan qat’iy nazar birdek murojaat qilinganligini kuzatamiz. Ma’lumki, agar murojaatlardagi ma’lumotlar empirik tajribaga va ayniqsa konkret dalillarga asoslanmaydigan bo‘lsa, odamlar bunday ma’lumotlarni noo‘rin qabul qila boshlagan bo‘lar edilar. Shu bois muqaddas manba uning to‘g‘riligini tasdiqlovchi dalillar, ya’ni ritorik argumentlar bilan to‘yintirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ritorik argumentlar – tezisning to‘g‘riligini isbotlashga qaratilgan nutqiy fragmentlardir. Qur’ondagi ritorik argumentatsiya tinglovchilarni ma’lum bir e’tiqodlar, xatti-harakatlar va axloqiy fazilatlarning to‘g‘ri yoki xatoligiga ishontirishdagi vosita vazifasini bajaradi.

Odatda Qur'on matni ritorik dalillarning barcha arxetiplarini o'z ichiga mujassam qilgan degan fikrlar ko'plab uchraydi. Ushbu bu holatni ikki xil vaziyat bilan tushuntirish mumkin:

**birinchidan**, Qur'on yuborilgan paytlarda arablar murakkab falsafiy mulohazalar va mantiqiy tuzilmalardan foydalanmaganlar va shu sababli Qur'on tilida arablar nutqining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Bu borada Qur'onning Ibrohim surasidagi 4-oyatida shunda keltirilgan: «Biz har bir payg'ambarni (hukmlarimizni) bayon qilib berish uchun o'z qavmining tili bilan (so'zlaydigan qilib) yubordik» [1. 255].

**ikkinchidan**, falsafiy va mantiqiy mulohazalar o'sha davrda ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan, shu sababli falsafiy va mantiqiy dalillarga asosan haqiqatni boshqa yo'l bilan isbotlashning imkonini bo'lmay qolgandagina murojaat qilish tavsiya etiladi.

Ma'lumki, insonlar o'rtasidagi bahs va ixtiloflar xoh diniy, xoh dunyoviy ishlarda bo'lsin, qadimdan davom etib kelayotgan dialektik jarayondir. Zaruriyat va talab-ehtiyoj borki, bahs va ixtiloflar bo'ladi. Bu haqiqat Qur'oni Karimning ko'plab oyatlarida ham ta'kidlanadi. Masalan. «Hud» surasining 118-119-oyatlarida: «Agar Robbingiz xohlaganida edi, (barcha) odamlarni bir ummat (bir xil dinga tobe) qilgan bo'lur edi. (Ular) mudom turlicha ( har xil e'tiqodda) bo'lib boraveradilar» [1. 235]. Ya'ni agar Alloh ixtiyor qilganida edi insonlarning e'tiqodlarini bir xil qilib qo'yari edi. Zero, Rabbimiz bunga qodir. Lekin Rabbimiz bunday qilmadi, aksincha yomon va yaxshini bir-biridan ajratish uchun hayotni ixtilofli qilib yaratdi. Demak dunyo shunday yaratilganki unda insonlar o'z fikrlari, yo'naliishlari, maqsadlari va orzu-umidlari borasida har xil bo'lishda davom etadilar. Fikrimizning mantiqiy davomi sifatida quyidagi «Baqara» surasining 251-oyatiga ham e'tiborimizni qaratamiz: «Agar Alloh odamlarning birini ikkinchisi bilan daf etib turmas ekan, shubhasiz, Yer fasodga (buzg'unchilik va xarobaga) aylangan bo'lar edi, lekin Alloh (barcha) olamlarga (nisbatan) fazl egasidir» [1. 41]. deyiladi. Yuqorida keltirilgan muborak oyat to'g'ri yo'ldagi odamlarni har zamon va har yerda yomonlarga qarshi kurashishga va har qanday vosita bilan fasod va tug'yon-isyonga qarshi turishga buyurmoqda. Dialektika nazariyasining «Qarama qarshiliklar birligi va kurashi» qonunida ham rivojlanish va taraqqiyotning asosiy regulyatori etib qarama qarshiliklar o'rtasidagi doimiy kurash asoslantirilganligini kuzatamiz.

Diniy va dunyoviy ixtiloflarning sabablari turlicha bo'lib, shular orasidan haqiqatga erishish maqsadida sodir bo'ladigan bahslarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Bunday ixtiloflarda haqiqatni to'la-to'kis bilish uchun dalil-hujjatlar keltiriladi va bu holat ulamolar tilida bahs-munozara deb nomlanadi. Shuningdek, g'arazli niyatdagi, kibrga ketish oqibatidagi, nodonligu ilmsizlik sababidagi ixtiloflar

ham bo‘ladiki, bu holat ulamolar nazdida manmanlik, kibr, janjal, o‘jarlik deyiladi. Ixtilof sabablaridan yana biri kishining bahsi ixtilof mavzuini har tomonlama to‘g‘ri tushuna bilmasligi hisoblanadi. Zero, haqiqatga bo‘lgan da‘voning ilmsiz kishi tomonidan bir tomonlama talqin etilishida nisbiylik darajasi juda yuqori bo‘ladi. Shunday masalalaraga oid bahslar borasida imom G‘azzoliyning «Ihyo ulum ad-din» kitobida ham quyidagicha fikr bildirilgan, «Tortishayotganlar xatoni aniqlab, haqiqatga intilishlari lozim. Kamchilik yoki xatolik o‘zida namoyon bo‘lishi yoki u bilan tortishayotganda ko‘rinishidan qo‘rmasligi kerak. Raqibini dushman deb emas, do‘sit sifatida ko‘rishi kerak. Agar u xatoni ochib bersa va haqiqatni aytsa, minnatdorchilik bildirishi zarur»[3. 216]. Zamonaviy argumentlash nazariyasi talqinida ham bahs mavzusining aniqligi uning samarali bo‘lishini belgilaydi, deb hisoblanadi. Agar bahs predmeti aniq bo‘lmasa, tortishuv behuda ketadi, ba’zi hollarda u axloqiy meyorlar doirasidan chetga chiqib, o‘zaro haqorat qilish darajasigacha yetib boradi. Shuning uchun bahsning maqsadini aniqlash va shundan keyin uning to‘g‘ri-noto‘g‘riliqi to‘g‘risida dalilli bahsni boshlash kerakligi talab etiladi. Imom G‘azzoliy shuningdek: «Haqiqatga intiluvchi insofli bo‘lishi kerak!! Haqiqatni tan olmayotganlar ko‘p narsani tushunmaganlari uchun undan uzoqlashmoqdalar» deydi. Imom G‘azzoliy o‘z mulohazalarini davom ettirib, taassuf bilan shunday fikr yuritadi: «Zamonamizda so‘zlashuv odobidan behabarlarning ko‘payib ketgani achinarlidir. Ular o‘z qabih niyatlariga yetishish yo‘lida turli uslublardan foydalanishadi. Niyatlari – faqat g‘olib chiqish, faxrlanish, maqtanish, xolos. Haqiqatni qidirib topish masalasi esa ularni tashvishlantirayotgan narsalarning eng oxirgisidir!!!»

Islom falsafasining mashhur namoyondasi Imom Shofi‘iy (r.a.) ham munozara yuritish odobiga doir ko‘plab pandu nasihatlar qatorida quyidagicha fikrlarni bildirganlar: «Men bir odam xato qilib qolar, deb hech kutmaganman. Bir kishi bilan suhbatlashganimda, Alloh taolo mening yoki uning tilidan haqiqatni chiqarar, deb umid qilganman. Haqiqat va hujjat keltirganimda, dalilni qabul qilsa, muhabbatim oshgan. Agar kimdir o‘sha haqiqatni inkor qilsa va katta ketsa, nazarimdan tushgan va men uni inkor qilganman. Men ilmim bilan insonlarni qoniqtirgan bo‘lsam, ilmni faqat Allohdan deb bilganman».

Insonlar o‘rtasidagi ixtiloflarning sabablaridan yana biri odamlarning hech bir dalil-hujjatsiz boshqalarning fikriga taqlid qilib mukkasidan ketgan holda ergashib ketishlaridir. Agar Qur‘oni Karimga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ota-bobolariga va o‘zlaridan kattalarga ko‘r-ko‘rona taqlidiy ergashib ketgan g‘ofil, johil va adashgan kishilar bayonini uchratsak bo‘ladi. Xususan, Baqara» surasining 170-oyatida: “Ularga (Mushriqlarga): «Alloh nozil etgan hukmlarga (oyatlarga) ergashingiz!», deyilsa, ular: «Yo‘q, biz ota bobolarimizni ne uzra topgan bo‘lsak, o‘shanga ergashamiz», deydilar. Ota-bobolari bordiyu, hech narsaga aqliali yetmaydigan va to‘g‘ri yo‘ldan

yurmaydigan bo‘lsalar ham-a!» [1. 26]. deyilgan. Qur’oni Karim taqlid qiluvchilarga istehzo qilgan holda raddiya beryapti: «agar ota-bobolari ko‘p narsaga aqlari yetmaydigan, to‘g‘ri yo‘lni topolmaydigan bo‘lsalar ham-a?» Demak, ko‘pincha odamlar orasida sodir bo‘ladigan tortishuvar mavzu-mohiyatni, voqelikni atroflicha o‘rganmaslik va tushunmaslik sababidan kelib chiqadi. Shuningdek, ko‘r - ko‘rona taqliddan yoki hasad va hoyu havaslarga berilib, umum e’tirof etilishi kerak bo‘lgan haqiqatdan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yishdan, nodonligi manmanlik sabablardan kelib chiqadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqola ilmiy bilishning tarixiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish, induksiya, deduksiya va modellashtirish usullari asosida yoritilgan bo‘lib, Islom manbalaridagi bahs yuritish va dalillash usuli zamonaviy argumentlash nazariyasi talqinida tadqiq etilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Biz diniy va dunyoviy ishlardagi munozaralarning azaldan mavjud bo‘lib kelayotganligini tahlil qilib, bu munozaralarni keltirib chiqaradigan bir qancha sabablarni ko‘rib chiqdik. Shu yo‘sinda endi insonlar o‘rtasidagi bahs-munozara va ixtiloflarni tartibga solib turuvchi islomdagи axloqiy normalar va xulq asoslarini ham tadqiq etib ko‘ramiz. Shuni e’tirof etib o‘tish kerakki, islom dini joriy qilgan axloq normalari va xulq asoslari bahs-munozaralarni turli usulda tartibga solib turishda o‘zini yorqin namoyon etadi. Shu maqsadda insonlar o‘rtasidagi muloqot to‘g‘rilik va haqiqatga mo‘ljallanib, safsata, yolg‘on, bo‘hton va xomxayollardan uzoq bo‘lishi lozimligiga da’vat etiladi. Qur’oni karimda payg‘ambarlar va ularning qavmlari o‘rtasidagi bo‘lib o‘tgan o‘zaro so‘zlashuvlarga oid oyatlarga nazar tashlasak, ibratli insonlar yolg‘onlarga chek qo‘yish maqsadida haq gaplarnigina gapirganining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, bunda tortishuv yoki nizo asosiy mavzudan chiqib ketmasligi kerakligi talab etilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Chunki bahs-munozara qiluvchilar ko‘pincha muayyan mavzu bo‘yicha tortishayotganlarida boshqa mavzularga ham o‘tib ketilish holatlari hayotda ko‘p kuzatiladi. Natijada ular qaysi mavzu yuzasidan tortishayotganlarini bilmay qoladilar. Agar biz Qur’oni karimga nazar tashlaydigan bo‘lsak, payg‘ambarlar bilan qavmlari o‘rtasida kechgan bahslar, munozara va tortishuvlarda u zotlarning mavzudan tashqariga chiqmaganlarini ko‘ramiz.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, an’ana va bid’atlarga mukkasidan ketishlik, ko‘r-ko‘rona taqlid qilgan holda ergashish zamonaviy argumentlash nazariyasi talqiniga ko‘ra vorisiylik qonuniyatining buzilishini ko‘rsatadi va buning oqibatida tanazzul kelib chiqib, rivojlanish va taraqqiyot sustlashadi. Ayniqsa, bu taqlidga

o‘jarlik, haqni tan olmaslik va hoyu havasga berilish qo‘silsa, tanazzul yanada yiriklashadi. Demak, islom manbalarida keltirilgan amallar va chaqiriqlar yig‘indisidan hosil bo‘lgan ilm ma’lum darajada tanqidiy-tahliliy va innovatsion uslubga asoslangan, degan xulosaga borsak o‘rinlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. – B. 43Al-Farabi. Dialektika. Istoriko-filosofskiye traktati. –Alma-Ata: “Nauka”, 1985. – S. 405.
2. Badr ad-Din az-Zarkashi. Al-Burxan fi ‘ulum al-Kur’an. T. 1–4. Beyrut, 1988
3. Abu Hamid muxammad al-Gazali at-Tusi. «Ixya’ ’ulum ad-din» («Vozrojdeniye religioznix nauk»). Tom I. Chast I. M.: «Nurul Irshad». 2007 – S. 216.
4. Turabova, S. K. (2021). Socio-Historical and Logical-Epistemological foundations of the development of the art of dispute. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 58-61.
5. Turabova, S. (2023). INTERRELATION OF THE DEVELOPMENT OF A NEW WAY OF THINKING AND A CULTURE OF SCIENTIFIC DISCUSSION IN MODERN CONDITIONS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 12, 51-56.
6. Turobova, S. (2020). Talabalarning argumentativ kompetentligini rivojlantirishda baxs-munozara metodining axamiyati. Obshestvo i innovatsii, 1(1/s), 496-500.
7. Kattakulovna, T. S. (2020). The Importance Of The Discussion Method In The Development Of Argumentative Competence In Students. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 442-446.